

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTINING ASOSIY TARMOQ VA SOHALARIGA KIRITILGAN INVESTITSİYALARINING HOLATI VA UNING TAHLILI

Jarilkapova Naubaxar Paraxat qizi

*Qoraqalpoq davlat universiteti Iqtisodiyot
fakulteti 4-kurs moliya va moliyaviy
texnologiyalar ta'lim yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining asosiy tarmoq va sohalariga jalb qilingan investitsiyalar holati, tarkibi va dinamikasi batafsil tahlil qilingan. Investitsiyalarning sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, qurilish, energetika hamda xizmatlar sohasidagi taqsimoti raqamli ma'lumotlar asosida ko'rib chiqiladi. Tahlillar asosida investitsion siyosatning ijobiy jihatlari bilan birga mavjud muammolar, ularni bartaraf etish yo'llari ham ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, xorijiy investitsiyalar ulushi, davlat-xususiy sheriklik loyihalari va innovatsion investitsiya manbalarining ahamiyati yoritilgan. Maqola yakunida investitsion faoliyatni yanada rivojlantirishga doir taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Investitsiya, investitsion faoliyat, tarmoq tahlili, xorijiy investitsiyalar, davlat investitsiyalari, asosiy kapital, davlat-xususiy sheriklik, sanoat va xizmatlar sohasi

Bozor iqtisodiyotida investitsiyalar iqtisodiy o'sish va taraqqiyotning asosiy drayverlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi so'nggi yillarda keng qamrovli iqtisodiy islohotlarni amalga oshirib, investitsion muhitni yaxshilashga alohida e'tibor qaratmoqda. Ushbu maqolada mamlakat iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlari va sohalariga kiritilayotgan investitsiyalarning hozirgi holati, ularning tarkibiy tuzilmasi, o'sish sur'atlari va samaradorligi tahlil qilinadi.

O'zbekiston Respublikasida 2020–2024-yillar davomida investitsiya hajmi barqaror o'sib bormoqda. Ayniqsa, yirik infratuzilmaviy loyihalarga, energetika, transport va sanoat tarmoqlariga qaratilgan investitsiyalar salmoqli o'sishga erishdi. 2024-yil yakunlariga ko'ra, asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 350 trln so'mdan oshdi. Bu ko'rsatkichning 40% dan ortig'i xorijiy investitsiyalar hissasiga to'g'ri keladi.


Asosiy kapitalga investitsiyalar – yangi asosiy fondlarni sotib olish va takror ishlab chiqarishga yo'naltirilgan xarajatlar majmuini bildiradi. So'nggi 6 yildagi asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi dinamikasi shuni ko'rsatmoqdaki, u deyarli 4 marta ko'payib, o'sish tendentsiyasiga ega bo'lmoqda.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning hajmi dinamikasi¹, trln. so'm



So'nggi yillardagi ularning o'sish sur'atlarini ko'radigan bo'lsak, 2019 yilgacha o'sib borgan va 138,1 % ga yetgani, 2020 yilda keskin tushgani – 95,6 % hamda hozirgi davrgacha yana o'sish tendensiyasiga ega bo'layotganini ko'rish mumkin – 100,9 %.

Asosiy kapitalga investitsiyalar o'sish sur'atlari dinamikasi, % da




Jami investitsiyalar hajmida, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi, 2021 yilga nisbatan 3,8 % punktga kamayib, 15,4 % ni yoki 41,5 trln. so'mni tashkil etdi. Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 228,4 trln. so'm yoki jami investitsiyalarning 84,6 % investitsiyalari o'zlashtirilib, 2021 yilga nisbatan 3,8 % punktga ko'paydi.

Statistik tahlilni o'tkazish maqsadlarida asosiy kapitalga investitsiyalar quyidagi asosiy kesimlarda shakllanadi: qo'yilma turlari, texnologik, takror ishlab chiqarish tarkiblari, iqtisodiy faoliyat turlari, moliyalashtirish manbalari bo'yicha.

Yillar kesimida markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushlari, % da²

¹ <https://stat.uz/uz/default/choraklik-natijalar/21516-2022#yanvar-dekabr>

² <https://stat.uz/uz/default/choraklik-natijalar/21516-2022#yanvar-dekabr>



2022 yil yanvar'-dekabr' oylarida O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar hisobidan 15,2 trln. so'm investitsiyalar o'zlashtirilib, 2021 yilga nisbatan 74,9 % ni tashkil etdi. Ularning jami hajmidagi ulushi esa 2,0 % punktga kamayib, 5,6 % darajasida qayd etildi.

O'zbekiston Respublikasi davlat kafolati ostidagi xorijiy kreditlar hisobidan amalga oshirilgan investitsiya loyihalari:

- Tabiiy gaz nazorati va hisobining avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish;
- Samarqand viloyatida turistik markaz qurish;
- Sirdaryo viloyati Guliston, Shirin va Yangier shaharlarining kanalizatsiya tizimini rekonstruktsiya qilish va rivojlantirish;
- Texnologik uskunalarni zamonaviylashtirish va aloqa tizimlarini kengaytirish;
- Amu-Buxoro irrigatsiya tizimini qayta tiklash;
- Toshkent viloyati ichimlik suvi va oqova suv tizimlarini rekonstruktsiya qilish va qurish (Faza-1);

Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 2,5 trln. so'mni (dollar ekvivalentida 223,6 mln. AQSh dollari) va jami investitsiyalardagi ulushi 2021 yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 0,3 % punktga kamayib, 0,9 % ni tashkil etdi. Shuningdek, mazkur jamg'arma hisobidan moliyalashtirilgan investitsiyalar hajmi 2021 yilga nisbatan 73,5 % ni tashkil etdi.

Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshirilgan yirik investitsiya loyihalari:

- Quyuv-prokat majmuasini qurish;
- Shovot-Qorao'zak temir yo'l liniyasini hamda Amudaryo ustidan o'tuvchi temir yo'l va avtomobil yo'li qo'shma ko'prigini qurish;
- Toshkent shahrida yer usti halqa metropolitenini qurish (II bosqich).

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha Respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan infrastruktura, iqtisodiy va ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 2021 yilga nisbatan 84,4 % ni yoki 20,9 trln, so'mni tashkil etdi. Shuningdek,


suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan investitsiyalar 2021 yilga nisbatan 92,0 % ni, 2,9 trln. so'mni tashkil etdi. Ularning jami investitsiyalardagi ulushi, mos ravishda 0,1 % punktga kamayib, 1,1 % ni tashkil etdi.

Yillar kesimida markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushlari, % da



Asosiy kapitalga investitsiyalarning statistik hisobi, qo'shimcha qiymat solig'ini qo'shgan holda, hisobot davrida amaldagi narxlarda, to'lov amalga oshirilgan paytdan qat'iy nazar, haqiqatda o'zlashtirilgan hajm miqdorida amalga oshiriladi.

Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar, trln. so'm³



³ <https://stat.uz/uz/default/choraklik-natijalar/21516-2022#yanvar-dekabr>

2022 yilning yanvar'-dekabr' oylarida korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 84,5 trln. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 31,3 % ini tashkil etdi.

Bevosita to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan moliyalashtirilgan investitsiyalardan O'zbekiston Respublikasi bo'yicha 37,0 trln. so'm, yoki 2021 yilga nisbatan 1,2 % punktga ko'paygan holda jami ulushi 13,7 % ga teng investitsiyalar o'zlashtirildi.

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar va o'sish sur'atlari korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobiga to'g'ri kelib, 2021 yilga nisbatan 110,6 foizni tashkil etdi.

Kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan 60,0 trln. so'm investitsiyalar o'zlashtirilib, jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmidagi ulushi 22,3 % ni tashkil etdi.

To'g'ridan-to'g'ri va kafolatlanmagan xorijiy kreditlar hisobidan quyidagi yirik investitsiya loyihalari amalga oshirildi:

- Sirdaryo viloyatida quvvati 1500 MVt bo'lgan yangi elektr stantsiyasini qurish;
- Sirdaryo viloyatida quvvati 220 MVt bo'lgan gaz-porshenli elektr stantsiyasini qurish;
- 2017-2021 yillarda uglevodorod xom ashyosi qazib chiqarish hajmlarini ko'paytirish bo'yicha Dastur;
- 2021-2022 yillarda respublika magistral gaz uzatish tizimini modernizatsiya qilish va samaradorligini oshirish dasturi;
- Samarqand viloyatining Nurobod tumanida quvvati 100 MVt bo'lgan quyosh fotoelektr stantsiyasini qurish;
- Buxoro viloyatida quvvati 270 MVt bo'lgan gaz-porshenli elektr stantsiyasini qurish;
- “Mustaqillikning 25 yilligi” konida geologiya-qidiruv ishlarini amalga oshirish va konni o'zlashtirish, gaz-kimyoy kompleksini qurish;
- Mineral o'g'itlar ishlab chiqarish kompleksini tashkil etish;
- Quruq sianid tuzlari ishlab chiqarishni tashkil etish

Shuningdek, tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan 21,1 trln. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 7,8 % ini tashkil etib, 2021 yilga nisbatan 0,2 % punktga kamayish) asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi.

Aholi mablag'lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 9,5 % i yoki 25,8 trln. so'm o'zlashtirildi. Aholi mablag'lari hisobidan asosan uy-joylar qurish sohasida investitsiya faoliyati amalga oshirilgan.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida qayta ishlash sanoati yetakchilik qilmoqda. Yangi avtomobil' modellarini ishlab

chiqarishni tashkil etish (Oniks, Treker), tsement ishlab chiqarishni kengaytirish (3-bosqich), texnik gaz ishlab chiqarishni tashkil etish, mineral o'g'itlar ishlab chiqarish kompleksini tashkil etish, paxta-to'qimachilik va agroklaster tashkil etish kabi yirik investitsiya loyihalari natijasida ushbu iqtisodiy faoliyat turida jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 76,4 trln. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 28,3 % i o'zlashtirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi (2024). Investitsiya faoliyati bo'yicha hisobotlar.
2. Davlat statistika qo'mitasi (2024). O'zbekiston Respublikasida investitsiyalarning asosiy ko'rsatkichlari.
3. Xasanov, A. A. (2023). "O'zbekiston iqtisodiyotida investitsion jarayonlar rivojining zamonaviy tendensiyalari." Iqtisodiy tahlil va prognozlash, 3(2), 40–48.
4. World Bank (2023). Uzbekistan Country Economic Update: Strengthening Investment Climate.
5. Karimov, M. T. (2022). "Sanoat tarmoqlariga investitsiyalar oqimi va ularning samaradorligi." Moliyaviy-iqtisodiy tadqiqotlar jurnali, 1(4), 56–63.
6. UNCTAD (2023). World Investment Report: Investing in Sustainable Energy for All.
7. OECD (2022). Investment Policy Review of Uzbekistan.